

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

2011-yil
7-mart
N:10
(66811)

ISSN - 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi



Ayyomingiz muborak,
munis onaxonlar,
lobar opa-singillar!



BOLALAR ADABIYOTIDA NIMA GAP?

Har joyda, har yerda, aziz bolalar, Sizlarning ertangi kuningiz uchun g'amxo'rlik qilinayotganining guvohi bo'layapmiz. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida Bolalar va o'smirlar Kengashining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Kengashning yillik rejasi atroflicha muhokama qilindi. Yig'ilishni boshqargan O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon bu to'g'rida axborot berdi. Shundan so'ng so'zga chiqqan taniqli shoir va yozuvchilar Miraziz A'zam, Tursunboy Adashboyev, Erkin Malik, Safo Matchon, Rahmatilla Barakayev, To'liqin Hayit, Kavsar Turdiyeva, Oygul Suyundikova, Bekzod Fazliddin o'z taklif-mulohazalarini bildirdilar. Yosh ijodkorlarga e'tibor qaratish, viloyatlarda kitobxonlar bilan uchrashuvlar tashkil etish masalalari ham ko'rib chiqildi.

Ko'rib turibsizki, aziz bolalar, sizga yanada ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Siz ham bolalar adabiyoti rivojiga hissa qo'shishga shoshiling.

Kengash haqidagi batafsil ma'lumotlarni gazetamizning keyingi sonlarida o'qiydiz.

TAHRIRIYAT

HUQUQINGIZNI BILASIZMI?

Poytaxtimizda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi hamda YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan birgalikda, «O'zbekistonda bola huquqlarini monitoring qilish milliy tizimini rivojlantirish va takomillashtirish» mavzuida davra suhbatlari bo'lib o'tdi. Unda odil sudlov, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy sohalarida bola huquqlarini monitoring qilinishi muhokama qilindi. Shu bilan birga, bola huquqlarini monitoring qilish milliy tizimini takomillashtirish bo'yicha bir qator tavsiyalar qabul qilindi.

SIFATLI MAHSULOTLAR DAUR TALABI

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan tashkil etilgan anjumanda yozuv daftarlari ishlab chiqaradigan matbaa korxonalarini faoliyati, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati borasida fikr almashildi. Asosiy maqsad yozuv daftarlarning jahon standartlariga to'la javob berishini ta'minlash, shuningdek, milliy ma'naviyatimizga zid hamda sifatsiz yozuv daftarlarning chetdan kirib kelishini oldini olish ekanligi alohida ta'kidlandi.

Hozirgi kunda respublikamizda dafta ishlab chiqarishga ixtisoslashgan 19 ta matbaa korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda. Tadbirda qatnashgan mazkur korxonalarining vakillari sohada amalga oshirilayotgan yangiliklar bilan o'rtoqlashdilar.

QADRLI SOVG'A

Poytaxtimizdagi 228-maktabda «San'at g'unchalari» nomli fortepyano to'garagi tashkil etilganiga hali ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Shayxontohur tumanidagi 324-maktabning 5-«G» sinf o'quvchisi Sojida Imomovaning ham to'garakka a'zo 50 nafar san'atsevar o'quvchilar qatorida o'z munosib o'rni bor. U ustoz Shohista Rasulovadan «Qari navo», «Yallama yorim», «Dilxiroj» nomli kuylarni mustaqil chalishni o'rganib oldi. Maktabida o'tkazilgan «Navoiyxonlik» kechasida ham o'rganigan kuylaridan chalib, hammaning olqishiga sazovor bo'ldi.

Yaqinda Sojida ustoziga atab ajoyib bayram sovg'asi hozirladi. O'zi mustaqil ravishda «Bahor vals» kuyini chalishni o'rganib,

8-Mart bayrami arafasida ularga chalib berdi.

Ustoz uchun bundan-da qimmatliroq, qadrliroq sovg'a bo'lmas kerak?!

Aziza YO'LDOSHEVA,

Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi

228-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi



*Aziz singiljon,
suluv qizlarjon!*

*Avalo, bayramingiz
muborak! Shunday quvonchli
kunda ham, ya'ni bayramingiz
arafasida sizlardan ko'plab xatlar
oldim. Rahmat, katta
rahmat!*

Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi 33-maktabning 6-sinf o'quvchisi Parizod Otayeva yozibdi:

«Men senga anchadan buyon xat yo'llay olmadim, chunki 5-sinfga o'tganimda, fanlarni o'zlashtirishim ancha qiyin kechdi. Boshlang'ich sinf o'qituvchimizga juda o'rganib qolgan ekanman. Lekin hozirda o'qishlarim yaxshi, o'rganib ketdim.»

Ikkinchi xatimiz Samarqand viloyati, Paxtachi tumanidagi 21-maktab o'quvchisi Farangiz Xolbo'tayevadan ekan. U haqida «Paxtachi» gazetasi muharriri

QIZ BOLA XATI

Egamnazar Tongotarov ancha iliq gaplarni ilova qilib, xususan, «Yangi avlod – 2010» bolalar ijodiyoti festivalining viloyat bosqichida g'olib bo'lib, sovg'alar olganini, she'riyatga qiziqishini aytibdilar.

Andijon shahridagi 6-maktabning 8-sinf o'quvchisi Mohiruyo Biloliddinova umid va ishonch bilan she'r bitib, uni gazetamiz sahifasida e'lon qilishimizni so'ragan.

Toshkent viloyati, Pskent shahridagi 42-maktabning 6-sinf o'quvchisi Dilfuza G'aniyeva «*Otaman mehnat-sevarlikni, onajonimdan mehribonlikni, opamdan ijod sirlarini o'rganishga harakat qilyapman*», deb

viloyati, xazorasp tumanidan Gulasal Matyoqubova, Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 12-maktab o'quvchisi Malika Mutalboeva, Farg'ona viloyatining Farg'ona tumanidagi 8-maktab o'quvchisi Dilnavoz Abxal-dinova ham o'z mashqlarini jo'natishgan.

Men ularning nomlarini behuda birma-bir sanamadim. Har biringiz mehrimdasiz, yuragim to'ridasiz. Jon muxlisalarim, ko'proq o'qing, o'rganing va shunday ijod qilingki, men ham sizlarga qoyil qolay. Bayramni xushnudlik bilan o'tkazing-da, yana menga maktublar, she'rlar yo'llang: qiz bola xati – nazokat, odob, tiniq va jarangdor tuyg'ular nomasi ekanligini ham unutmang!

Darvoqe, muallimalaringizni mening nomimdan tabriklab qo'yinglar. Sizga salom bilan «Tong yulduzi»ngiz



O'quvchi yon dafnangizga
Aziz bolalar!
Tarixda n dars olasiz, tarixiy kitoblarni o'qiydiz va beixtiriy o'zingizni tushnimgan so'zlarga duch kelasiz. Biz sizlarga ko'maklashish uchun ayrim tarixiy so'zlarni izohi bilan e'lon qilayapmiz. Siz ularni o'z o'rni ishlatib, bizlarga yozib yuboring. Xatlaringizni kutamiz. Qani, kim chiroyli so'z tuzadi? Konvert ichiga 6x9 hajmdagi rasmingizni yuborishni unutmang.

1. Anvar – ravshan, eng nurlil.
 2. Dorug'a – shahar hokimi.
 3. Ziroat – dehqonchilik, ekinzorlar.
 4. Koriz – yer ostidan o'tkazilgan suv yo'li.
 5. Rabot – karvon qo'nib o'tadigan joy.
 6. Sipoh – otliq askar.
 7. Fiqh – huquqshunoslik.
 8. Xonaqo – g'arib-miskinlar qo'nib o'tadigan joy.
 9. G'addor – xiyonatchi, aldanchi.
 10. Gurdum – falak, osmon.
 11. Favj – qism, qo'shin bo'lagi.
 12. Yog'iy – dushman, yov.
- So'z boylingiz oshib borsin, aziz bolalar!

Dunyodagi buyuk zotlarga havas qilmagan bola yo' smir bo'lmas kerak. Xo'sh, ular qaysi yo'l bilan eng buyuk insonlarga aylanishdi? Ularning bu xususdagi fikrlariga ko'z yugurtiraylik:

1. Kitob – bilim manbai (maqol).
2. Jozef Addisn, ingliz yozuvchisi: «Aqlni charxlash uchun o'qish – badantariyadek gap».
3. Jon Reskni, ingliz nazariyotchisi: «Kitobsiz odam aqliy jihatdan o'ta qashshoqdir».

Bu maqol va hikmatlarni istagancha davom ettirish mumkin, eng muhimi, barcha buyuk insonlar kitob o'qib, ilm olib, komil inson darajasiga yetishganlar. Shunday ekan, baxtimizning asosi bo'lgan kitobga mehr qo'ysak, barcha orzu tilaklarga erishamiz.

Xo'sh, nechta kitob o'qingiz? Bizga maktub yo'llang, gazetamiz sahifalari sizga mushtok.

TAHRIRIYAT



Tabrik

Bolalarga bilim berishdan ham ulug'roq ezigulik yo'q. O'qituvchi degan sharafli nomni e'zozlab, kelayotgan muallimlarga har qancha tahsinlar o'qisak oz.

O'G'IZRABOTLIK USTOZLAR

Maktabda, ayniqsa, ta'lim-tarbiyada ayol o'qituvchining o'rni beqiyos. Bu mo'tabar insonlar nafaqat oilada, balki ilm dargohlarida ham yoshlarga yetarli ilm va tarbiya berishda peshqadam. Chunki yurtboshimiz alohida ta'kidlaganlaridek, «Farzandlarimiz bizdan ko'ra bilimli, kuchli, dono va albatta, baxtli bo'lishlari shart!».

Men ham sakkiz nafar singilimning «O'qituvchi» degan yuksak nomga munosib bo'lish uchun o'g'il-qizlarga yuqori darajada bilim berishga doimo intilib kelayotganlarini alohida ta'kidlamoqchiman.

Har doimgidek bahor elimizga shodlik ulashmoqda. Bayramlar ketidan bayramlar kelayotir. Yurtimizning har bir go'shasida o'zgacha bir tarovat. Men ham qutlug' ayom arafasida Xorazm viloyati, Bog'ot tumanidagi O'g'izrabot qishlog'idagi umumta'lim maktablarida ko'p yillardan buyon yoshlarga saboq berayotgan Gul Sara, Zevarjon, Nabira, Zulayho, Nazira, Gavhar, Gulasal, Anagullarni 8-Mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan qutlayman. Qadim Turon eliga Nosiriddin Rabg'uziydek buyuk allomani yetkazib bergan ko'hna zamindan yanada iste'dodli yigit-qizlar yetishib chiqishiga ishonamiz. Bu ulug' orzu-niyatga erishish uchun kuch-g'ayratni, bilim va salohiyatni ayamang. «Intilganga tole yor» ekanligini aslo unutmang. Al Beruniy, Zamaxshariy, Ibn Sino, Al Xorazmiy, Ulug'bek, Ahmad Farg'oniy singari buyuk siymolarni kamol toptirgan yurt nomi, kelajagi ham buyuk bo'ladi!

Jabbor RAZZOQOV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist



Bayramlarda, tug'ilgan kunlarda eng yaqin kishilarimizga gul sovg'a qilish odatga aylangan. Guldastalar esa odatda toq gullardan iborat bo'ladi. Buning ma'nosini ko'pchilik bilmasa kerak. Buni quyidagicha izohlasharkan:

SIRI NIMADA?

- 1 dona gul – «Yagonamsan» degani.
- 3 dona gul – «Sen, men va farzandimiz – biz bir oilamiz!»
- 5 dona gul – «Seni sevaman».
- 7 dona gul – odatda unashtirish kunida bo'lg'usi
- kelinga kuyov shuncha gul hadya etadi.
- 9-11 dona gul – «Seni do'st deb bilaman».
- 13 dona gul – «Biz yengilmaymiz!»
- 15 dona gul – «Mening hurmatimga munosibsan».
- 15 donadan ortiq toq son-da hadya etilgan gullar sizga bo'lgan hurmatning cheksizligini bildirar ekan.



BOSH QOTIRING

Tikuv mashinasini ilk bor Isaak Merrit Zinger degan germaniyalik muhojir Amerikada yaratgan.

Aziz bolalar!

Siz ham ixtirochilikka qiziqib ko'ring. Masalan, qo'lchiroq uchun bir yil ishlaydigan batareya haqida bosh qotirib ishga kirishsangiz, ajab emas. 5-10 yilda uni ixtiro qilsangiz, dunyo ahli sizga rahmat deydi.

MUVAFFAQIYATGA ERISHISH YO'LI

Mutaxassislarning fikricha, muvaffaqiyatga erishishning bosh omili ishonchdir. Ishonch bilan o'qisangiz, bilim olsangiz, er taga, albatta, dastlab talaba, so'ng olim va elning eng hurmatli farzandiga aylanasiz.



Dil OROM tayyorladi



ENG YAXSHI O'QITUVCHI

Bu xushxabar maktabda juda tez tarqaldi. Ustozni hamkasblari qutladilar, o'quvchilar esa o'z o'qituvchilarini tabriklashga oshiqdilar, maktab telefonining qo'ng'irog'i tinimsiz jiringlardi.

Yunusobod tumanidagi 288-maktabning ona tili va adabiyot fani muallimasi Gulnoza opa Nurmatova «Yil o'qituvchisi – 2010» Respublika ko'rik-tanlovida birinchi o'rinni egaladi. Gulnoza opaning shogirdi 7-«A» sinf o'quvchisi Robiya Qosimova esa tumanda o'tkazilgan «Bilimlar sinovi» tanlovida birinchi, 9-sinf o'quv-

chisi Shahlo Abdurasulova ona tili va adabiyot fanidan o'tkazilgan fan olimpiadasida tuman g'olibi bo'lib, shahar bosqichiga yo'llanma oldi.

– Bu muvaffaqiyatlar ona tili va adabiyot faniga chuqurlashtirilgan maktab uchun kam, albatta, – deydi direktor Gulnora opa Usmonova. – Biz bundan-da ko'proq yutuqlarga

erishishga harakat qilamiz. Nafaqat bu fanga, balki barcha fanlarga kuchli e'tibor qaratganmiz. 9-sinf o'quvchilaridan Maqsadbek Eshqo'ziyev biologiya, Ulug'bek Qodirov kimyo fanlaridan shahar bosqichida bo'ladigan fan olimpiadasida o'z bilimlarini sinovdan o'tkazishadi.



BO'SH O'TIRMAYMIZ

Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 4-umumta'lim maktabida tajribali ustozlar Abdutolib aka Abdullayev, Nargiza opa Isaxo'jayeva tashabbusi bilan o'quvchilarning amaliy mashg'ulotlarda olgan saboqlari sinovi bo'lib o'tdi. 5-6-sinf o'quvchilari «Suratlarda Vatan madhi»

FAXRGA AYLANGAN KASB

– Iqtisodchi davlatni rivojlantirishda, uning obro'sini oshirishda katta o'rin tutadi, – dedi iqtisodchi bo'lish niyatidagi Shahzoda.

– Tadbirkor esa yangi ilg'or texnikalarni yanada kengaytiradi. Kam harajat qilib, ko'p foyda oladi, bu bilan o'ziga ham, davlatga ham katta foyda keltiradi, – bo'sh kelmadi Shohsanam.

«Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik» yiliga bag'ishlangan tadbir «Kasblar bayrami» deb nomlandi. Maktabning 1–9- sinflari o'rtasidagi ochiq darslar, bellashuvlar, savol-javoblar har bir kasbning jamiyatda tutgan o'rniga qaratildi. Ayniqsa, bu borada 9-«A» sinf o'quvchilari faolligini yana bir bor namoyish etishdi. Ishtirokchilar «Iqtisodchi» va «Tadbirkor» guruhlariga bo'linib, bu sohaga oid ko'plab ma'lumotlarni bilib olishdi. Ularga ustozlari Farog'at opa Po'latova yaqindan yordam berdi.

– Bu tadbirda meni anchadan buyon o'ylantirib kelayotgan «Kim bo'lsam ekan», degan savolga javob topgandek bo'ldim, – deydi zavqlanib 9-«A» sinf o'quvchisi Madinaxon.

Shuningdek, kasb bayramida 2-«A», 5-«V», 7-«V» sinf o'quvchilari ham o'zlari qiziqqan kasblar haqida to'liqlanib gapirishdi.



tanlovida bellashgan bo'lsalar, 7-8-sinflarning chevar qizlari «Birga tikamiz, birga to'qiy-miz» shiori ostida o'z ishlari-ning ko'rgazmasini tashkil etdilar. Mazkur anjuman barchada katta qiziqish uyg'otdi.

Z.MAMATQULOVA



Feruza SOYIBJON qizi, ZUBAYDA olgan suratlari

SABOQDAN SO'NGGI O'YLAR

Men ustozimiz Umida opa Qayumovaning darslarini doim intiq bo'lib kutaman. Bir menmi desam, boshqa sinfdoshlarim ham shunday ekan. Shu bois, Umida opa saboqlarini olish uchun butun sinfimiz bilan alohida tayyorgarlik ko'ramiz.

Tengdoshlarim orasida u kishiga havas qilgan, ularday fidoiy ustoz bo'lishni orzu qilganlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ular orasida men ham borman.

Gulhayo AXMATOVA, poytaxtimizdagi 104-maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi

Abdulla SHER

MUOMALA ODOBI

(Boshi 8-sonda)

Darhaqiqat, muomala odobida muloqotning asosi bo'lmish til katta ahamiyatga ega. Zero, odamlar bir-birlarini til orqali tushunadilar, til vositasida o'z fikrini o'ziga yetkazish ma'lum ma'noda san'at. Zarur so'zni topish, muayyan holatga mos keladigan ifodaviy vositalarni qo'llash, fikrni jumlaviy jihatdan to'g'ri ifodalash, aniq, bosiq, salobat bilan

so'zlash hamsuhbatingiz yoki tinglovchining diqqatini tortishda muhim rol o'ynaydi, so'zlovchining nutq madaniyati darajasini ko'taradi. Muomala odobida tilning sofligi masalasi ham muhim. Til sofligi buzilishining asosiy uch xil ko'rinishi mavjud: birinchi – bir tilda so'zlashayotib, ikkinchi – tilga o'tib ketish, to'g'rirog'i, birvarakay «ikki tilda» so'zlashish, misol qilib, ikki talaba-

ning so'zlashayotganda, o'zbek tilidan rus tiliga, rus tilidan o'zbekchaga muntazam o'tib turishini olish mumkin, bu ba'zilar uchun odatiy hol bo'lib qolgan. Ikkinchi – bir tilda so'zlashayotib, ikkinchi tildagi so'zlarni, ayniqsa, jargonlarni ishlatish. Muomala odobida «siz» va «sen»ning o'z o'rnida qo'llanilishi ham ahamiyatga ega. Xususan, ota-ona, aka-opa yoki boshqa yoshi katta odamlar uchun shaxs bo'lganida, ularga nisbatan birlikdagi «u» olmoshini emas, hurmatni anglatuvchi «ular» yoki «u kishi» shaklini qo'llash odobdan...

(Davomi bor)



Bolajonlar, ushbu rivoyatni Yunusobod tumanidagi 21-umumta'lim maktabida o'tkazilgan bobokalonlarimiz - g'azal mulkingning sultoni Hazrat Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo tavaludiga bag'ishlangan anjuman yana bir bor yodimizga soldi. Tadbirda maktabning onatili va adabiyot muallimasi Vazira opa Azimovaning o'quvchilari bergan saboqlari samarasini ko'rgandek bo'ldik.



Rivoyat qilishlaricha, bir podshoh biror mamlakatga yurish qilishidan oldin o'sha yurtning aholisi nima ish bilan mashg'ulligiga qiziqar ekan. Kunlarning birida shoh dunyoga dong'i ketgan mamlakatlarni bosib olish maqsadida o'sha yurtga o'z ayg'oqchilarini yuboribdi. Oradan oz fursat o'tgach, ayg'oqchilar shoh huzuriga kelib: - Olampanoh, ul mamlakat aholisi faqat ilm-fan bilan mashg'ul ekanlar, - deyishibdi. Shunda oqil va dono podshoh: - Unday bo'lsa, bu mamlakatni bosib olishga qodir emas ekanmiz. Chunki ilm bilan shug'ullangan insonlar hech qachon mag'lub bo'lmaydilar, - deya xulosa qilgan ekan.



SAODAT SOHILI QAYERDA?

7-«D» sinf o'quvchisi Abdurahim Karimovning Bobur Mirzo siymosida sahnaga chiqishi uning uchun bir imtihon bo'ldi. Nega, deysizmi? Axir tengdoshingizning ulug' bobokalonimiz siymosini qanday yaratishi ustozlari, maktabdoshlari, mehmonlarni birdek qiziqtirayotgan edi-da! Hayajonli daqiqalar ortida qoldi. Abdurahim tomoshabinlar qatoridan o'rin olgan O'zbek Milliy drama teatrinin bir guruh san'atkorlaridan kuch oldimi, bor mahoratini ishga soldi. To'g'ri-da, hayajon hech qachon inson-



Ilmdan bir shu'la dilga tushgan on, Shunda bilursankim, ilm bepoyon.

Abulqosim FIRDAVSIY

ni g'olib qilmagan. Boz ustiga, mashhur san'atkorlar ham mana shunday kichik sahna ko'rinishlari orqali o'z faoliyatlarini boshlagan bo'lsalar, ne ajab!?

So'z navbati O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti,

Xalqaro Bobur mukofoti sovrindori Muhammadali Abduqunduzovga berilganida, go'yoki, davraga Bobur Mirzo kirib kelgandek bo'ldi. Sevimli aktyorimiz adabiyot muallimi bo'lib dars o'tdi. O'zi ijro etgan «Bobur» videofilmidan Xonzodabegim bilan bo'lgan dialogini yodan aytib berdi. O'quvchilar ularni qarsaklar bilan olqishlashdi. Vatandan yiroqda yashab, bir umr saodat sohiliga, ya'ni tug'ilgan yurti Andijonga talpingan shoh va sho'irning dardi cheksiz yurt sog'inchi ekanligini bolajonlar chuqur his etishdi.

Taniqli san'atkorlarning maktab sahnasida rol ijro etishlari nafaqat o'quvchilarni, balki barcha yig'ilganlarni to'lqinlantirib yubordi. Navbatma-navbat so'zga chiqqan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlardan Po'lat Nosirov, Rixsi Ibrohimova, Ra'no Yarasheva, Shohida Ismoilovaga gul taqdim etgan 5-«A» sinf o'quvchilarining ko'ngli gul kabi yayradi.

G'OLIBA va ZEBO



MADINANING DIL SO'ZLARI



Madina bilan suhbatimiz uning bolaligini xotirlashdan boshlandi:

- Har bir inson bolaligini yodga olar ekan, avvalo, yaqin do'stlarini bir-bir ko'z oldidan o'tkazadi. Bolalik deganda, xayolimga bog'chaga borgan paytlarim keladi. Meni hech qachon bog'chaga bir o'zimni olib borishmagan. Bog'chaga dugonam Sitora bilan birga borib, birga qaytardik. Nafaqat bog'chada, balki maktabda ham u eng yaqin dugonam bo'lgan. 246-maktabning 1-sinfiga borganimiz hamon yodimda. Endilikda dugonam Sitora Ahmedovani oynayi jahon orqali ko'rganimda, o'sha beg'ubor bolalik damlarim yodimga tushadi.

- Hozirgi kunda yosh xonandalar orasida mumtoz qo'shiq kuylayotganlari kam



uchraydi. Bu yo'nalishda ijod qilishingizning asosiy sababi nimada?

- San'at olamiga kirib kelayotganimda, onajonim menga mumtoz qo'shiq kuylashni maslahat berganlar. Maslahat-

Madina MUMFOZ - 1990-yilning 10-oktabrida Toshkent shahrida tavallud topgan. Bog'chaga borgan damlaridanoq san'atga mehr qo'ygan qizaloq sakkiz yoshidan «Fantana» guruhiga qatnay boshlagan. Shu bilan birga, 3-sonli musiqa maktabida fortepyanodan saboq olib, ustozlari nazariga tushgan. Endilikda mumtoz yo'nalishida ijro etgan «Soqiynomat saftikalon», «Farg'ona», «Qo'shchinor» qo'shiqlari, shu bilan birga, «Janob hech kim», «O'zimdan o'zimgacha», «Muhabbatnoma», «Xuzma-yuz», «Lola» badiiy filmlaridagi rollari orqali sizga yaxshi tanish. Fabiatan quvnoq bo'lsa-da, har bir ishga jiddiy yondashuvchi yosh xonanda hozirda O'zbekiston Davlat konservatoriyasi, milliy estrada yo'nalishining 2-bosqich talabasi.

lariga amal qilib adashmagan ekanman, endilikda nafaqat yurtimizda, balki Turkiya, Ozarbayjon kabi davlatlarda ham mumtoz qo'shiqlarimni muxlislar iliq qarshi olishmoqda. Buning uchun eng yaqin

sirdoshim, maslahatgo'yim va o'rni kelganda, haqqoniy tanqidchim - onajonimdan behad minnatdorman.

- Fikringizga qo'shilsaman, onalar hamisha to'g'ri maslahat berib, farzandlari-

ning kamolini ko'rishni orzu qiladilar. Bayram arafasida siz ham onajoningizga atab sovg'a tayyorlayotgan bo'lsangiz kerak?

- Albatta, uni tayyorlash uchun astoydil mehnat qildim. Odatda, doimo ishlarimni a'lo darajada bajarishga harakat qilaman. Alohida mehr bilan yaratgan «Ona» nomli qo'shig'imni bayram sovg'asi tariqasida volidamga taqdim qilish niyatidaman.

Shu bilan birga, yurtimizdagi barcha onalarni, qizlarimizni bayramlari bilan qutlab, ularga sihat-salomatlik va baxt tilab qolaman!

- Sizni ham bayram bilan muborakbod etib, kelgusi ijodingizda ulkan parvozlar tilab qolamiz!

Suhbatdosh: Gulyuz BAHODIR qizi



Sahifamiz asis muhliklari, ortaga qanday kun? Xalqaro xotin-qislar bayrami, deysizmi, ha, barakalla! Topgan bir dasta gul, deganlaridek, biz ham ushbu sahifamizni faqat qislarimizdan kelgan maktublar asosida tayyorladik.

DAVOMADNING BOISI...

Bizda esa aksincha, betob bo'lib qolsak ham dars qoldirgimiz kelmaydi. Chunki biz tahsil olayotgan To'rtko'l bank kollejida darslar juda qiziqarli o'tiladi. Kollejimiz rahbari Rustam Otaboyev boshchiligidagi o'qituvchilarimizning barchasi bilimdon, talabchan, o'z ustida tinimsiz ishlaydigan ustozlar. Ular bizga puxta bilim beribgina qolmay, kasb-hunar sirlarini ham o'rgatishadi. Olgan saboqlarimizni esa to'garak mashg'ulotlarida mustahkamlab boramiz. Tez-tez o'tkaziladigan tadbirlar tufayli kunimiz



Sir emaski, ko'pchilik tengdoshlarimiz darslarga kirasdan, vaqtlarini internet klublarda o'tkazishadi. Qiziqib sababini so'rasangiz, bu darsga qiziqmaymiz, shuning uchun kirmimiz kelmadi, deyishadi.

maroqli, mazmunli o'tsa, «Zakovat» intellektual o'yinlari bilimimizni yanada boyitishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, davomad bo'yicha guruhlararo bellashuvimiz yaxshi samara beryapti. G'olib guruhlar har haftaning boshida rag'batlantirib boriladi. Lekin baribir kollejimizda davomadning yaxshiligi ustozlarimiz mahoratidan deb bilaman.

Xo'sh, aziz tengdoshlarim, Sizning bilim dargohingizda bu borada ahvol qanday? «Tong yulduzi»ga, albatta, yozib yuboring.

Fazilat RAHMATULLAYEVA, Qoraqalpog'iston Respublikasi, To'rtko'l tumani

BOYCHECHAK

Ko'klamning erka qizi, Mittigina boychechak. Ona zamin yulduzi, Qir qo'ynida oy chechak. Sovuqni tashlab kelding, Bahorni boshlab kelding, Goho pag'a bulutlar, Ko'zini yoshlab kelding. Qarab o'ng-u so'limga, Asta oldim qo'limga, Sevinch to'ldi dilimga, Olamga chiroy chechak.



Madina QOSIMXO'JAYEVA, Namangan viloyati, Chortoq tumanidagi 30-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi

MUSHUKNING HOLIGA VOY

Qadimda bir chol bilan kampir yashagan ekan. Ular yashaydigan kichkinagina uy ayvonning shiftiga qaldirg'och in quribdi. Har bahorda bir juft qaldirg'och uchib kelib, bola ochisharkan. Bu xonadonda Mosh laqabli bir mushukcha ham yashar, u istasa ayvonda, istasa hovlida oftobda toblanib yotardi. U chol-u kampirning erkatoyi edi.

Bahorda qaldirg'ochlar uchib kelishganida, chol bilan kampirning tashvishi yanada ko'payardi. Chunki qaldirg'och bola ochgach, Mosh labini yalagancha ayvondan nari ketmay qolardi-da!

Kunlardan bir kuni chol choyxonaga, kampir esa nabiralari shirinliklar olgani bozorga ketishibdi. Aksiga olib shu kuni qaldirg'och bola ochdi. Qarangki, mug'ombir mushuk shuni ham bilibdi-da. Qaldirg'och yegulik

olib kelish uchun uchib ketganida, Mosh pisib borib, palaponlardan biriga tashlanib qoldi. Xuddi shu payt buvajon kelib qoldi va mushukni tutib oldi.

Ona qaldirg'och og'zida yegulik bilan qaytgach, palaponlari «chichi»lashib, bo'lgan voqeani aytib berishdi.

—Onajon, siz yo'qligingizda mushuk bizni yeb qo'yishiga oz qoldi. Yaxshiyamki, buvajonimiz kelib qoldilar.

Ona qaldirg'och qo'rqib ketdi va palaponlarini qanoti ostiga oldi.

—Qani o'sha ochko'z mushuk? — so'radi u.

—Buvajon uni yerto'laga qamab qo'ydi. Ana endi u yerdan chiqolmay miyovlab yotibdi.

Mosh ham rosa tavbasiga tayandi. Yerto'ladan:



(Ertak)

O. YOSIXONOV chitagan rasmlar

—Buvajon, meni kechiring, boshqa bunday qilmayman, — deya rosa yalindi.

Buvajon ayvonga chiqib palaponlarga qarab jilmayib so'radi:

—Nima qilamiz, kechiramizmi uni? Palaponlar baravariga chug'urlashdi:

—Kechiramiz, buvajon! U yomon ish qilganini tushundi, — deyishibdi.

Qissadan hissa shuki, kichiklarni xafa qilganing holiga voy!

Malika IBROHIMOVA, 3-sinf o'quvchisi

JO'JANING BOLALIGI



—Umida, tuccum nimaligini bilasanmi? — so'radi Kosiyat.
—Ha, bilaman, tuccum jo'janing bolaligi...




VOY, QORNIMI OG'RIYAPTI...

—Voy-voy, qornim og'riyapti, — dedi kimyo darsida Nozim qornini changallab. — Tashqariga chiqib kelsam maylimi?
—Mayli, boraqol, bugun baribir sendan so'ramayman, — dedi o'qituvchi.
—A-a, shundaymi? Og'riq o'tib ketdi, ustoz, tashqariga chiqmay qo'yaqolay.

Gavhar RABBIMOVA, Samarqand viloyati, Urgut shahridagi 123-maktabning 4-sinf o'quvchisi

MATEMATIKA CHARXPALAGI



1. Sanashda ishlatiladigan sonlarning nomi.
2. Manfiy, musbat va nol soni birgalikdagi nomi.
3. 1,0,2/3, -2 sonlari birgalikda qanday nomlanadi?
4. Ikkiga bo'linmaydigan sonlarning nomi.
5. Ikkiga bo'linadigan sonlarning nomi.
6. Ikkita bo'luvchiga ega bo'lgan sonlarning nomi.
7. Ikkitadan ortiq bo'luvchisi bor sonlarning nomi.
8. Surati maxrajidan kichik bo'lgan kasrning nomi.
9. Surati maxrajidan katta bo'lgan kasrning nomi.
10. 2/4 kasrning nomi 2/4.
11. Noma'lum son qatnashgan tenglik nomi.
12. Bir yoki bir necha raqami tayin tartibda takrorlanadigan davriy o'nli kasr qanday nomlanadi?
13. Agar davriy kasrning davri verguldan keyin darhol boshlansa, uning nomini aytning.
14. 0,58(41) davriy kasrning nomi nima?

Sanobar ESHNIYOZOVA, Samarqand viloyati, Narpay tumanidagi 30-umumta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi



She' riyatni go'zal chamanga, she'rni esa o'ushbo'y, muattar gullarga qiyoslashadi. Demak, shoir qalbi ham guldek nafis bo'ladi.
Bugun ana shunday nozikqalb ijodkor qizlarimizning ko'klamoyning iliq nafasi ufurib turgan she'rlaridan guldasta saraladik.



Zulfiya MAHKAMOVA,
Toshkent shahar, Sergeli tumani



Madina JO'RAYEVA,
Buvayda Farq'ona viloyati, Buvayda tumani
Farg'ona viloyati, Buvayda tumani
39-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi



Iroda ERGASHYEVA,
Yunusobod tumanidagi Yunusobod maktabi
86-umumta'lim maktabi
o'quvchisi

BAHOR QO'SHIG'I

Qor ostida boychechak,
Entikar sof havodan.
Beshak olardi bahra
Ajib, turfa navodan.
Bo'g'otdagi sumalak,
Zavqlanib qo'shiq aytar.
Qorlar erib, jilg'a ham,
O'ynoqlab, jo'shib qaytar.
Jam bo'lib eshitaylik,
Bahor kuyin sehrini
Chin dildan his etaylik.
Ona yerning mehrini.

Malika HAYDAROVA,
Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi
20-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

INSON

Omonat dunyoning armoni nedir,
Shikasta qalblarning darmoni nedir.
Ojiz bu zabonim bir so'zni deydir,
Orzu, umid bilan yasharkan inson.
Xushhollik yuragin qamrab olsa ham,
Tushkunlik qalbiga soya solsa ham.
Ertangi kuniga ishonib har dam,
Orzu, umid bilan yasharkan inson.



Lobar QURBONOVA,
talaba

O'ZBEKISTON

O'zbekiston - guliston,
Bag'rida ajib bo'ston.
Bog'laridan bol yig'ar,
Asalarilar g'ujg'on.
Xalqi tanti, mehmondo'st,
Dalasi hosilga kon.
Yurt ta'rifin so'zlasam,
Bo'ladi jajji doston.



Mehriiso XOLMATOVA,
Yunus Rajabiy nomidagi
Toshkent pedagogika kolleji
talabasi

YURT MADHI

Buxoro-yu Samarqand,
Obidalar turfa xil.
Naqshlar jilosiga,
Boqsak quvonadi dil.
Urf-odati o'zgacha,
Milliy taomi oshdir.
Har ishi bamaslahat,
Keksalar elga boshdir.
Men shunday yurt farzandi,
Unga sodiq qolaman.
Ona yurtning madhini,
Kuy-qo'shiqqa solaman.



Husniya QURBONOVA,
Surtxondaryo viloyati, Angor tumanidagi
35-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi



Nafisaxon ABDUVAHOBBOVA,
Andijon viloyati, Marhamat tumanidagi
13-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

BESHIK

Umr qisqa, inson g'animat,
Turfa xildir bitiklarimiz.
Bizlargadir saboq ta'limot,
O'tayotgan har bir onimiz.

SENI SOG'INDIM

Baxtga to'la yorug' kunlar olib kel,
Sharros yomg'ir quygan tunlar olib kel.
Iforlar taratgan gullar olib kel,
Bahor, seni biram sog'inib ketdim.

BOLALIGIM

Quvnoq edim, sho'x edim,
O'yin edi jon-dilim.
O'tib ketdi birpasda,
Beg'ubor bolaligim.

BILAG'ON

Oyisi der Adhanga:
- Agar yesang ko'p konfet,
Og'rib qolar tomog'ing,
Shu gapimni anglab yet.
- O'yinchoqning tomog'i,
Og'rimaydi, - der Adham.
Ayiqchamga «Oh» bering,
Yo'qsa, yig'lar chunonam.



Kimlar yetdi maqsad, murodga,
Kimlarga armon bo'ldi orzu.
Ortga qaytmas qarshilangan kun,
Kimga soya solmoqda qayg'u.

Yashil dalalarga choggim keladi,
Beg'ubor yoshligim topgim keladi.
Yalpizlar kaftini o'pgim keladi,
Bahor, seni biram sog'inib ketdim.

Bosh qo'yadi ufqqa quyosh,
Yarim bag'ri to'lar oyning ham.
O'tgan fasl keladi qayta,
Adashganlar topar yo'lini.

Xush kelding, seni men kutdim intiqib,
Qaldirg'och yo'lga ko'zlarim tikib.
Har tong saharlarda deymen entikib,
Bahor, seni biram sog'inib ketdim!

Maktabdan kelsam doim,
Kutib oladi oyim.
«Katta bo'lib qolding», deb
Jilmayadi muloyim.

Buvanga erkalansam,
Buvimga suykalansam.
Yarashayapti, qarang,
Bundoq qarasam.

CHEVAR QIZIM, SEVAR QIZIM



o'tayotganimda, tikuv mashinasiga ko'zim tushib, qiziqib qoldim. Narxi ham uncha qimmat emas ekan. Uni sotayotgan onaxon bilan savdolasha ketdim.

Yozning jazirama issiq kunlaridan biri. Dam olish kuni qishga hozirlik ko'rish maqsadida gilos, olcha, o'riklardan murabbo yopib olmoqchi bo'ldik. Ertalab uyimiz yaqinidagi bozor chag'iga yo'l oldim. Qaytishda bozor yaqinidagi eski-tuskilar sotiladigan joydan

- Oling bolam, asl mol, hatto charm matolarni ham bemaol tikaveradi. Chokiyam silliqlik. Biznikilar tikmay qo'yishdi, bo'lmasa sotmasdim...
Bir odatim bor: didimga yoqib qolgan narsani, albatta, sotib olaman. Tikuv mashinasini yengil mashinaga yuklab, uyga olib keldim. Uydagilarning xursand bo'lishlarini ko'z oldimga keltirib, jilmayib qo'yaman. Ammo kutganimday bo'lmadi. Xaridim ayolimga, katta qizlarim Nodira va Nargizaga ham yoqmad. 7-sinfda o'qiydigan Dilfuza qizim esa quyonchadek dikirlab o'yinga tushdi. Darrov changlarini artib, onasidan qanday ishlatilishini so'rab oldi.
Ko'plashib dastgohni uning xonasiga olib kirdik.
Shu bo'yi bu voqea ham unutila boshladi. Har zamonda oila davrasida o'tirganimizda, uydagilar murabbo uchun masalliq olishga ketib, tikuv mashinasi ko'tarib kelganimni askiya qilishadi.
Dilfuza to'qqizinchi sinfga o'tganida esa qiziq voqea bo'ldi. Dam olish kuni qizimning sinfdosh dugonasi Sayyora erta tongda uyimizga kirib keldi. Qo'lida o'sha paytlar rusum bo'lgan qimmatbaho mato. Qizim dugonasi

bilan o'z xonasiga kirib ketganicha tushlik mahali birrov ovqatlanishga chiqishdi va yana kirib ketishdi. Kechki payt hovliga chiqqan Sayyorani ko'rib, ayolim havas bilan:
-Voy-vo', ko'ylaging buncha chiroyli, qayerda tikitirding? - deb so'radi. Yuzlari quvonchdan loy-loy yongan Sayyora qizimga ishora qildi.
-Dilfuzaning ishi!..
Ochig'i, bu holdan hammamiz hayron edik. Dilfuza tikuv mashinasi xonasiga kirgan kundan boshlab o'zi bilganicha allanimalar tikib yurarkan. Keyinchalik esa maktabidagi tikuvchilik to'garagiga qatnabdi. Dugonasining ko'ylagi uning ilk katta ishi bo'libdi. Hozirda uning oldiga dugonalaridan tashqari boshqa buyurtmachilar ham kelib turishadi.
Har gal yoz faslida murabbo yopish uchun bozorga bormoqchi bo'lganimda, uydagilar bilan bir kulishib olamiz.



YUSUF akangiz



25-fevral kuni Oqsaroyda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov raisligida O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Homiylik Kengashining navbatdagi yig'ilihi bo'lib o'tdi. Unda nutq so'zlagan yurtboshimiz jumladan shunday fikrlarni bildirdilar:

«Hozirgi vaqtda dunyoda 7 milliardga yaqin aholi yashayotgan bo'lsa, jahon miqyosida eng mashhur, taniqli shaxslar bu sportchilardir. Mana, o'tgan yili Xitoyda bo'lib o'tgan Osiyo o'yinlarida badiiy gimnastika bo'yicha O'zbekiston jamoasi qancha-qancha yirik davlatlar vakillari orasida yuksak shohsupaga ko'tarilganda, shaxsan men to'qinlanib, hayajonli bir holatni boshimdan kechirdim. O'ylaymanki, bunday yutuqlar barcha yurtdoshlarimizga katta quvonch bag'ishlagani, shubhasiz.

Yoki futbol bo'yicha mamlakatimiz o'smirlar terma jamoasi Osiyo qit'asida g'olib bo'lib, bu yil Meksikada bo'lib o'tadigan jahon chempionatida qatnashish huquqini qo'lga kiritgani bizning sport hayotimizdagi tarixiy voqeadir. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin». Yurtboshimiz qalbini cheksiz faxr va iftixorga to'ldirgan bu fikrlar Siz, aziz sportsevar bolajonlarga ham yaxshi tanish ekanligiga aminmiz.

Darhaqiqat, bolalar sporti o'zbek sportining kelajagi, uning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yuksaltirishning poydevoriga aylanishi zarur.

Mazkur yig'ilishda Yurtboshimiz qizlarni sportga jalb etish masalasida alohida to'xtaldi. Bolalar sportini rivojlantirish, qizlarning sport bilan shug'ullanishi uchun, ayniqsa, qishloqlarda tegishli shart-sharoit yaratish masalasiga atroflicha to'xtaldilar.

Biz ham yuqoridagi gaplarning tasdig'i sifatida sportni o'z hayot mazmuniga aylantirishda ko'mak berayotgan murabbiylar haqida hikoya qilamiz.

YANGIQO'RG'ON NIHOLLARI

Dilfuza opangiz murabbiy. Qayerda, deysizmi? U kishi bilan yaqinroq tanishishni istasangiz, biz bilan birgalikda safarga otlaning.

Menimcha, «safar»imizga hamroh bo'ldingiz-a? Unda dovon osha Namangan viloyati tomon oshiqamiz.

Yo'l chetidagi «Yangiqo'rg'on tumani» degan yozuv e'tiborimizni tortadi. Demak, mo'ljalda adashmadik. Endi viloyatning eng chekka qishlog'i Nanayni topish qiyin emas...

Nihoyat, qishloqqa kirib bordik. U yerdagi 39-BO'SM (bolalar va o'smirlar sport maktabi)dan taralayotgan yoqimli musiqa sadolaridan angladikki, demak, bu dargoh qizaloqlarning sevimli maskaniga aylangani rost.

Darvoqe, biz izlayotgan murabbiyni osongina topdik, shekilli! Ana u – gimnastika xonasida bir guruh qizaloqlar bilan mashg'ulot o'tayapti. Ishiga berilib ketganidan xonaga

qadam qo'yganimizni ham sezmadim-ya?! Qanday yaxshi, bir-biridan xushbichim, chaqqon qizaloqlar egilish mashqlarini bexato bajarishga urinoqdalar. Negadir saboqlarda bizning ham qatnashgimiz keladi...

– Qizlarimizga havas qilayapsizlarmi, yashirmang?! – deya hazil aralash so'z qotdi bizga peshvoz chiqqan Murabbiy Dilfuza opa To'layeva. So'ngra, savollari-mizni kutmasdan zavqlanib gapira ketdi:

So'nggi ikki yilda badiiy gimnastika bilan shug'ullanadigan qizlar soni uch barobar oshgan.



MURABBIY BO'LISHGA YO'L

– Avval bolalar bog'chasida 10 yil tarbiyachi bo'lib ishlaganman. Mamlakatimizda bolalar sportiga berilayotgan e'tibor va g'amxo'rliklardan, qurilayotgan sport koshonalaridan, shohsupadan joy olayotgan bolalar yutuqlaridan ruhlanib, murabbiy bo'lishga ahd qildim. Negaki, sport olami menga begona emas. O'tam sportchi.

Bu fikrimni aytganimda, bajon-u dil rozi bo'ldilar. Dastlabki saboqlarni otamdan oldim. Shuningdek, bolalikdan sport bilan «do'stlashgan»im ham qo'l keldi.

– Murabbiy bo'lishga harakatni

nimadan boshladingiz? Nanaydan Namanganga qatnab, avvalo, gimnastika bilimdoni bo'lishga urindim. So'ngra, To'raqo'rg'on tumanidagi 36-BO'SMda, badiiy gimnastika maktabida saboqni davom ettirdim. U yerda maktab direktori,

badiiy gimnastika bo'yicha viloyatimizning tajribali ustози Gulchehra opa Sobirovadan badiiy gimnastikaning nozik sirlarini o'rgandim. Yetarli tajriba to'plagach, sertifikat olib, qishloqqa qaytdim. Hozir qishlog'imizda shogirdlarim juda ko'p.

– Ular maktabingizga o'z ixtiyorlari bilan kelishadimi?

– Ishonasizmi, menda shug'ullanayotgan qizlarni ko'rib: «Mening qizimni ham shogirdlikka oling», – deya ota-onalarining o'zlari yetaklab kelishmoqda. Ayni damda ularning soni 30 nafarni tashkil etadi.

Bundan tashqari, stol tennisi va suzish bilan shug'ullanayotgan qizlar soni ham ko'paygan.



UMIDLAR SARI...

– Jajji shogirdlaringizga ilk gimnastika saboqlarini nimadan boshlaysiz?

– Dastlab gimnastika uchun, eng muhimi, to'g'ri egilish. Bu mashqni uddalagan har bir qizaloq badiiy gimnastika jozibasining asirasiga aylanadi.

– Maktabingizdagi shart-sharoitlar sizni qoniqtiradimi?

– Kechagina Prezidentimiz boshchiligida Oqsaroyda bo'lib o'tgan

navbatdagi «Bolalar sportini rivojlantirish» jamg'armasining yig'ilishida kelgusi faoliyatimiz bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqildi.

Faxrlanib ayta olamizki, bugun biz viloyatlarimizda gimnastika bo'yi-

Aynan bolalik chog'idan sport bilan do'st bo'lish bolaning o'z ustida ishlashi, xarakterining toblanishi, musobaqalarda qatnashish orqali qat'iyatlik va mardlik xususiyatlarining shakllanishi, g'alabaga intilishi, ta'bir joiz bo'lsa, avvalo, o'z ustidan g'alaba qozonishi, bir so'z bilan aytganda, mustahkam irodaga ega bo'lishi uchun zamin yaratadi.

cha hududiy federatsiyamizga hamda markazimizga egamiz.

Xo'sh, bolajonlar! Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumanidagi Nanay qishlog'idagi sayohat sizlarga yoqdimi? Yoqmadi, deyishingizga asos ham yo'q-da! Axir viloyatning eng soz qishloqlaridan birida badiiy gimnastika mashg'ulotlari muntazam o'tkazilib turibdi. Ular viloyat birinchiligida qatnashmoqdalar. Respublika musobaqalariga dadil kirib kelmoqdalar. Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimizdagi imkoniyatlarning kengligi, musobaqalarning ko'pligi Dilfuza opa singari talabchan murabbiylar mehnatini ro'yobga chiqardi. Tez orada nanaylik gimnastikachilar xalqaro maydonlarda yurt bayrog'ini yanada balandroq ko'tarishlariga umid bog'ladik.

Suratlarda namanganlik yosh gimnastikachi qizaloqlar

Sahifani Ma'mura MADRAHIMOVA tayyorladi





QIZLAR AKADEMIYASI



Bu yorug' olamda Vatan
bittadir,
Bittadir dunyoda Ona
degan nom!

KALING, BIR KULISHAYLIK

– Ozoda, buvingga o'xshab bukchayib qayerga ketyapsan?

– Pensiya, oyijon!..

– Salima, namuncha yozuving xunuk, bunaqada katta bo'lsang, kim bo'lasan?

– Shifokor bo'laman, ustoz!

Muhabbat HAMIDOVA

TO'GARAGIM - JON-U DILIM

Bizning «Zamin» bolalar drama teatrimiz 2003-yildan buyon faoliyat yuritib keladi. Ko'plab ko'riktanlovlarda birinchi o'rinni egalladik. Respublika O'quvchilar saroyida va 23-maktabda «Navoiyxonlik kechasi», «Assalom, Navro'z!» folklor etnografik teatrlashtirilgan tomosha, «Tilga e'tibor – elga e'tibor», «Qomu-



simiz – nomusimiz», 1-Iyun – Xalqaro bolalar kuniga bag'ishlangan «Bolaligim – poshsholigim» kabi tadbirlarda ishtirok etdik. «Toshkent nihollari – 2010» bolalar ijodiyoti festivali laureati bo'ldik.

Bu to'garakda qirqdan ziyod o'quvchilar faol qatnashib keladi. To'garagimiz qatnashchilari bir oila a'zolaridek ahil-inoqimiz. Shu to'garak a'zosi bo'lganimdan juda-juda baxtiyorman.

Malika RUSTAMOVA,
Sergeli tumanidagi 32-
maktab o'quvchisi

Assalomu alaykum mening nazokatli, jondan aziz qizlarim! Avvalo, sizlarni bayramingiz bilan chin dildan tabriklayman. Bayram shukhi qalbingizni hech qachon tark etmasin!

Aslida bir yigitga qirq hunar oz, deyishadi. Men esa qiz bolaga ming hunar ham oz degim keladi. Chunki qiz bolaning mas'uliyati o'g'il bolalarga nisbatan ko'proq. Qizlar shirinsuvcanligi, ocushmuomalaligi bilan yigitlardan ajralib turishi, har qanday qiyin vaziyatdan muloyim tabassumi bilan chiqib keta olishi lozim.

MAKTUBLARNI SARALAGANDA...



Shu kunlarda tahririyatimizga kelayotgan maktublarning keti uzilmayapti. O'quvchilar gazetamizni sevib o'qishlari bilan birga, unga birinchilardan obuna bo'lganliklari haqida yozishibdi. Shunday qizlarimizdan biri Samarqand viloyati, Qo'shramot pedagogik kasb-hunar kollejining 2-bosqich talabasi Kamola Saidmurodova shunday yozadi:

– Men shu kungacha sinflararo, maktablararo, mahallalararo o'tkazilgan «She'riyat gulistoni», «She'riyat bog'i», «She'riyat dunyosi» tanlovlari 1-o'rinlarni oldim. Mendan yaxshi ijodkor chiqadimi, yo'qmi, bilmayman, lekin ijod zavqi qalbmida yashashga, yaratishga ishtiyoq uyg'otayotgani bois yozaveraman. Yozganlarimga befarq bo'lmaysizlar, degan umidda ijodimdan namuna yuboryapman.

Azizim Kamolaxon!
She'rларingizni o'qidik, o'z ustingizda yanada ko'proq ishlasangiz, albatta, kelajakda yaxshi shoira bo'lishingizga ishonch bor.
Ijod qilishda charchamang!

MANZURA

Sahifani OFTOBOYIM tayyorladi

OYIM BILMASIN...

Salim singlisi Sevara bilan dars tayyorlab o'tirardi.

– Sevara, bir gap aytsam, hech kimga aytmasanmi? – dedi u singlisiga sirli ohangda.

– Yo'q, hech kimga aytmayman, ayting, akajon...

– Kecha men oshxonaning oynasini sindirib qo'ydim, yaxshiyam onam buni ko'rmasdilar, aytib qo'yman, xo'pmi?

– Men ham sizga bir gapni aytmoqchi edim. Hech kimga aytmayman, deb so'z bering.

– Xo'p, hech kimga aytmayman.

– Bugun ertalab maktabga otlamayotman, baroq mushugim hovlida junjikib turibdi. Bechoraga rahmim kelib, ozgina pishloq bilan kolbasadan kesib berdim, siz ham hech kimga aytmang.

– Men esa kuchugim Tarzanga muzlatkichdan ozgina go'sht olib berdim, hech kim bilmasin, xo'pmi,

singiljon.

– Kecha oyijonim pishirgan non va shirin kulchalardan maydalab, qarq'a va qushlarga sepib qo'ydim. Axir ular qishning sovug'ida qayerdan ham yemish topishardi?! Ularga juda-juda rahmim keladi...

– Eh, Sevara, bir piyolagina shaftoli murabbosidan ham bermabsan-da, essiz. Juda shirin edi. Qushlarning oyilari murabbo tayyorlab berolmasa...

– Ha, aytganicha, muzlatkichda anchadan buyon bir banka sut turgandi, o'shani ham kosaga solib, Baroqvoysga beraymi?

– Mayli, baribir hech kim ichmayaptiku. Oyim hech narsani isrof qilmanglar, deydilar-ku. Ularga o'zimiz ichib qo'ydik, deymiz-da.

– Kecha bir do'stimning kurtkasi yitilib ketgandi, menda bo'lsa 3 ta kurtka bor, bittasini olib borib bersammikin-a,



Sevara, nima deysan?

– Yaxshiku-ya, lekin oyimga nima deysiz?

– Kichkina bo'lib qolgandi, baribir kiymasdim, derman...

Eshik ortidan ularning suhbatlarini tinglab jilmayib turgan Aziza opa shunday qo'li ochiq, beg'ubor farzandlari borligidan ich-ichidan quvonib, qo'lidagi bir kosa ovqatini qo'shni onaxonnikiga olib chiqib ketdi. Shuni aytisalar kerak-da, qush uyasida ko'rganini qiladi, deb.

MANZURA

TONG
yulduzi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin
SHOYODGOROV,
Olovuddin
ORIPOV
Navbatchilar:
Axtamqul KARIM,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:

Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruz JALLOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel/faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»

NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftanaviy dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 71776
Buyurtma N: J 1251